

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEV TOLIF YULDASHEVICH**

**GEOGRAFIK VA MATEMATIK FANLAR INTEGRATSIYASI  
ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KARTOGRAFIK  
BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH  
(akademik litseylar misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**UDK: 377.091.3:911**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Pedagogical Sciences**

**Ergashev Tolif Yuldashevich**

Geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish (akademik litseylar misolida) ..... 3

**Эргашев Толиф Юлдашевич**

Развитии картографических знаний учащихся на основе интеграции географических и математических дисциплин (на примере академических лицеев) ..... 25

**Ergashev Tolif Yuldashevich**

Development of students' cartographic knowledge based on the integration of geographical and mathematical disciplines (on the example of academic lyceums) ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEV TOLIF YULDASHEVICH**

**GEOGRAFIK VA MATEMATIK FANLAR INTEGRATSIYASI  
ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KARTOGRAFIK  
BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH  
(akademik litseylar misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2PhD/Ped10384 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Musayev Jahongir Payazovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xaydarova Surayyo Abdusalomovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (+99871) 227 12-24, faks: (+99871) 246-53-21; 246-02-24. E-mail: [ik-geografiya.nuuz@mail.ru](mailto:ik-geografiya.nuuz@mail.ru). O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti)

Dissertatsiyasi bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (115-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil:100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.:(+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 15-may kuni tarqatildi.  
(2026-yil 14-maydagi 83-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.M.Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**M.M.Avezov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., dotsent

**Z.N. Tojiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi davrda jahon ta'lim tizimi amaliyotida fanlararo integratsiya asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, ta'lim va tarbiya tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-uslubiy ta'minotni yangilash, o'quv materiallarini ishlab chiqishda zamonaviy didaktik yondashuvlardan foydalanish, fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirish, ularning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali metod va shakllarni takomillashtirish hamda ularni ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoning ta'limi rivojlangan davlatlar tajribasida ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda, xususan, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish maqsadlariga moslashtirish sharoitida fanlararo integratsiyani yanada takomillashtirish, ta'lim jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari talablaridan kelib chiqib tabiiy va aniq fanlarni o'qitish metodikasini yangilash, bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali tasvirlash usullarini ishlab chiqish, o'qitish mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida boyitish, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda ilg'or metod va shakllarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda sinf va sinfdan tashqari faoliyatni samarali tashkil etish, elektron ta'lim platformalarini yaratish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga keng e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, ayniqsa, tabiiy va aniq fanlarni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab ta'limi tizimi oldiga qo'ygan "2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kiritishga erishish"<sup>1</sup> vazifasi fanlararo integratsiyani takomillashtirish va rivojlantirish lozimligini talab etadi. Bu borada, o'quvchilarning tabiiy va aniq fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2019-yil 30-sentyabrdagi PQ-4467-son "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 28-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-con farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.

sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan, ya'ni axborotlashgan jamiyat hamda demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini belgilashga qaratilgan yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda fanlararo aloqadorlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, o'quv predmetlari o'rtasidagi integratsiyaning bilimlarni puxta o'zlashtirilishi, o'qitish sifatini yaxshilash hamda samaradorligini oshirishdagi ta'lim jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari O.Abduquddusov, M.U.Barotov, G.X.Ibragimova, D.R.Inogamova, U.Musayev, N.N.Tolibov, A.Umronxo'jayev, N.A.Hikmatova<sup>2</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, geografiya ta'limini samarali tashkil etish, o'quvchilarga geografik, shu jumladan, kartografik bilimlarni berish jarayonini texnologiyalashtirish, o'qitishda faol metodlardan foydalanish, kartografik bilimlarni o'zlashtirishning ijtimoiy hamda individual – shaxsiy ahamiyati T.M.Mirzaliyev, P.Baratov, H.Vaxobov, A.N.Nigmatov, M.T.Mirakmalov, J.P.Musayev, Sh.M.Sharipov X.N.Amonov, F.T.Rajabov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, O.T.Mirzamahmudov, Sh.Avazov, X.Xudoyqulov, S.Matsaidova, H.Nikadambayeva, M.O.Primov, B.Abduraxmonov, I.A.Xudoyberdiyeva<sup>3</sup> va boshqalarning ishlarida tahlil qilingan.

---

<sup>2</sup> Абдуқуддусов О. Интегратив ёндошув – чуқур билим ва яхши фазилатларни шакллантириш омили // Халқ таълими ж. –Т.: 2000. - № 3. – 121-123-б.; Баротов М.У., Иногамова Д.Р., Ҳикматова Н.А. Фанлараро интеграция тушунчаси ва таълим жараёнидаги ўрни // Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. – Т.: 2022. Vol. 2. Issue 12. – pp. 41-48; Жўраев Р., Умронхўжаев А. Интеграция – янги сифат // Узлуксиз таълим ж. – Т.: 2002. - № 2. – 98-102 б.; Ибрагимова Г.Х. Ўқув фанлари мазмунини интеграциялаш –таълим сифатини ошириш омили сифатида / Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida fan va ta'lim integratsiyasi masalalari. Resp.ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'pl. – Т.: 2023. - № 1 (1). – 150-155-б.; Мусаев У. Интеграция – таълим жараёнини оптимallashtiriшнинг муҳим принципи // Халқ таълими ж. – Т.: 2002. - № 6. – 2-9-б.; Толибов Н.Н. Фанлараро интеграция асосида бўлажак учувчи-муҳандисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш методикаси // Ж. Образование и инновационные исследования. – Т.: 2022. - № 7. – С. 283-286.

<sup>3</sup> Авазов Ш., Абдурахмонов Б., Матсаидова С. Географик маданият / Ўқув қўлл. – Тошкент – Наманган – Урганч: 2022. – 178-179-б.; Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar / O'quv qo'll. – Т.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 144-б.; Vaxobov H, Mirzamahmudov O.T. Geografiya o'qitish metodikasi / Uslubiy qo'll. – Namangan: "Namangan" nashriyoti, 2016. – 4-б.; "География" ("Амалий география") / Ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун дарслик. Mualliflar: Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 160 б.; Карташунослик / Амалий ва лаборатория машгулотлари. Э.Ю.Сафаров, С.А.Авезов, О.Р.Алланазаров, Р.Қ.Ойматов. – Т.: Университет, 2012. – 152 б.; Карташунослик / Дарслик. Т.Мирзалиев, Э.Ю.Сафаров, А.Эгамбердиев, Ж.С.Қорабоев. – Т.: Университет, 2010. – 239-б.; Мирзалиев Т. Картография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан"нашриёти, 2007. – 200 б.; Никадамбаева Ҳ. "Ўзбекистон табиий географияси" фанини ўқитиш жараёнини электрон ўқув-методик таъминот ёрдамида такомиллаштириш // Ўзбекистон География жамияти ахбороти ж. – Т.: 2015. 46-жилд. – 66-б.; Примов М.О. Ўзбекистонда картографик фаолиятни ташкил этишда замонавий технологияларнинг қўлланилиши // Тарихий тадқиқотлар ж. – Т.: 2023. № 1. – 57-58-б.; Xudoyberdiyeva I.A., Musayeva N. Geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish // "Geografiya va geografiya ta'limidagi muammolari" Res.ilmiy-amal.konf.mat. (2018 yil 30 may). – Т.: TDPU, 2018. – 454-455-б.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida O.Y.Vlasova, O.Y.Grigorenko, Y.P.Tyagenko, Y.L.Morar, O.I.Nagel, V.V.Petruxina<sup>4</sup> va boshqa ilmiy izlanuvchilarning ishlarida geografiya fanining boshqa fanlar, xususan, matematika fanlari bilan integrallashgan holda o'qitish mazmuni va metodikasi, geografiya hamda boshqa fanlar integratsiyasini ta'minlash omillari, ustuvor tamoyillari, mexanizmi, uni takomillashtirish yo'llari yoritilgan bo'lsa, S.A.Abdulvagabova, T.N.Bicheool, A.Kuprin, D.V.Lisitskiy, V.B.Petunin, B.B.Serapinas, Smorodin I.Vegener, Sh.T.Efendiyeva, A.N.Ujegov<sup>5</sup> kabi tadqiqotchilarning ishlarida esa geografiya, chunonchi, kartografik bilimlarning zamonaviy dunyo uchun ahamiyati, geografiya darslarida kompyuter texnikasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va bu jarayonda samarali bo'lgan metodlar, maktab geografiya ta'limini o'qitishda kartografik bilimlar targ'ibotini tashkil qilish usullari to'g'risida so'z yuritilgan.

Xorij olimlaridan B.K.Bayrak, I.Brizka, M.F.Erkoch, M.O.Gul, I.Hellmane, S.Kairavuori, J.T.Klein, V.Kallunki, S.Karppinen, K.Komulainen, S.Sintonen<sup>6</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan fanlararo o'qitishni samarali tashkil etishda integratsiya jarayonini shakllantirish, maktab hamda pedagogik ta'lim tizimida integral va fanlararo yondashuvning o'rni va ahamiyatini aniqlash, integratsiya asosida fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirishning ilmiy va didaktik imkoniyatlari yoritib berilgan. Xususan, M. Birbili, Ch. Fu, Zh. Zhou, Y. Xin, R. Weibela, C.C.R. Gimenes de Sena, B.G. Flaire Jordao, S.M. Vanzella Castellar, N. Heidari, K. Schwippert, S. Sprenger, T. Wang<sup>7</sup> va boshqa olimlarning ishlarida kartografik bilimlarni uzluksiz ta'limning

---

<sup>4</sup> Власова О.Ю. Интегрированные уроки географии с другими предметами в основной школе // Ж. Актуальные проблемы современного образования. – М.: 2015. – № 2 (19). – С. 45; Власова О.Ю. Реализация интегрирования математических и географических знаний в основной школе // Актуальные проблемы современного образования. – 2016. – № 1 (20). – С. 92; Григоренко О.Е., Тягненко Е.П. Интеграция географии и математики в основной школе как средство успешного усвоения знаний учащимися // Ж. Актуальные проблемы современного образования. – М.: 2016. – № 1 (20). – С. 100; Морарь Ю.Л., Петрухина В.В. Межпредметная интеграция элементов математики и географии курса 6 класса как средство успешного усвоения знаний обучающимися // Ж. Педагогических исследований. – М.: 2022. № 1. Том 7. – С. 30-34; Нагель О.И. К вопросу об интеграции в образовании // Ж. Отечественная и зарубежная педагогика. – М.: 2015. - № 3. – С. 75.

<sup>5</sup> Бичеол Т.Н. Методы изучения и использования географических карт // Ж. Вестник Тувинского ГУ. Педагогические науки. – Тыва: 2012. - № 4. – С. 28-30; Лисицкий Д.В. Перспективы развития картографии: от системы “Цифровая земля” к системе виртуальной геореальности // Ж. Вестник СГУГиТ (Сибирского государственного университета геосистем и технологий). – Новосибирск: 2013. - № 2. – С. 8-16; Куприн А.М. Занимательная картография // Кн.для учащихся 6-8 кл.ср.шк. Перераб. И доп. – М.: Школа, 2016. – С. 11; Петунин В. Б. Формирование картографических умений с помощью компьютера // Ж. География в школе. – М.: 2017. № 1. – С. 37-41; Серapiнас Б.Б. Математическая картография / Учебник для ВУЗов. – М.: Изд-ский центр “Академия”, 2010. – 336 с.; Смородин И. Вегенер. Континенты и катастрофы // <https://proza.ru/2015/12/20/1211>; Ужегов А.Н. Использование атласов и контурных карт на уроках обществознания и права // Ж. Школьная педагогика. – М.: 2023. - № 2 (28). – С. 6-8.Эфендиева Ш.Т., Абдулвагабова С.А. Формирование картографических знаний и умений у учащихся в курсе изучения школьной географии // Ж. Известия ДГПУ. – Махачкала: 2020. - № 1. Т. 14. – С. 119-122.

<sup>6</sup> Bayrak B.K., Erkoсh M.F., Gul M.O. Integration application in interdisciplinary teaching: case of science and technology areas // <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED500185.pdf>; Hellmane I., Brizka I. What is Developing Integrated or Interdisciplinary or Multidisciplinary or Transdisciplinary Education in School? // [https://www.researchgate.net/publication/332579341\\_What\\_is\\_Developing\\_Integrated\\_or\\_Interdisciplinary\\_or\\_Multidisciplinary\\_or\\_Transdisciplinary\\_Education\\_in\\_School](https://www.researchgate.net/publication/332579341_What_is_Developing_Integrated_or_Interdisciplinary_or_Multidisciplinary_or_Transdisciplinary_Education_in_School); Interdisciplinary integration in teacher education / Authors: S.Karppinen, V.Kallunki, S.Kairavuori, K.Komulainen, S.Sintonen // [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-94-6209-395-9\\_12](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-94-6209-395-9_12); Klein J.T. Integrative learning and interdisciplinary studies // [https://www.academia.edu/755632/Integrative\\_learning\\_and\\_interdisciplinary\\_studies](https://www.academia.edu/755632/Integrative_learning_and_interdisciplinary_studies).

<sup>7</sup> Birbili M. Mapping Knowledge: Concept Maps in Early Childhood Education // <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1084931.pdf>; Fu Cheng, Zhou Zhiyong, Xin Yanan, Weibela R. Reasoning

dastlabki bosqichlaridan boshlab o'qitishni yo'lga qo'yish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida samarali o'zlashtirish, shuningdek, o'qituvchilarni kartografik bilimlarni o'qitishga metodik jihatdan tayyorlash masalalari muhim ilmiy asos sifatida qaralgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'qituvchilar tayyorlash: ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** akademik litseylarda geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlariga xos kompetensiyaviy sifatlar hamda ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilish va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish;

geografik va matematik fanlar uyg'unligi asosida yaratilgan metodika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, shuningdek, "Elektron kartografik atribut" va "Amaliy kartografik bilimdonlik" nomli ishlanmalarni akademik litsey amaliyotiga joriy etish orqali o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

integratsiyalashgan ta'lim asosida o'quvchilarning kartografik bilimlari rivojlanish darajasini hamda qo'llanilayotgan metodikaning samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi indikator, mezonlar, ko'rsatkichlar va darajalarni aniqlash;

akademik litsey o'quvchilarining kartografik bilimlarini rivojlantirish mexanizmini nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim jarayonlarining o'zaro integratsiyasi asosida takomillashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida akademik litsey sharoitida geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish jarayoni belgilangan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida akademik litseylarda geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar, uning asosiy bosqichlari, ustuvor tamoyillari, metodlari hamda vositalari qaraladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik va qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv), tashxislash (anketa, test, suhbat, so'rovnomma, kuzatish) usullari qo'llanildi, shuningdek, geografiya va matematika fanlarini o'qitishga oid bosma

---

cartographic knowledge in deep learning-based map generalization with explainable AI // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/13658816.2024.2369535>; Gimenes de Sena C.C.R., Flaire Jordão B.G., Vanzella Castellar S.M. Cartographical knowledge and training of geography teachers // <https://ica-proc.copernicus.org/articles/2/115/2019/ica-proc-2-115-2019.pdf>; Heidari N., Schwippert K., Sprenger S. Thinking. Speaking. Producing. Maps: linking cartographic concepts and cartography-specific language use // <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10382046.2024.2363633>; Wang T. Future Education of Cartography and GIS: what is next? // Journal of Geodesy and Geoinformation Science. – Beijing (China): 2022. Vol. 5, Ussue 3. – pp. 1-6

manbalar hamda elektron resurslar o'rganildi, olingan natijalar grafik ko'rinishda ifodalandi va modellashtirish usulidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan anketa so'rovi, bilimlarni tashxislash, dastur, dasturga muvofiq reja hamda turli ta'lim texnologiyalarini qo'llash va o'quv topshiriqlari to'plamidan iborat metodika ishlab chiqilgan;

nazariy qarashlar, metodik ta'minot va zamonaviy ta'lim texnologiyalari, shuningdek, yaratilgan "Elektron kartografik atribut" va "Amaliy kartografik bilimdonlik" metodikalarini akademik litseylar amaliyotiga joriy etish natijalariga tayangan holda, geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

akademik litsey o'quvchilarining kartografik bilim va kompetensiyalarini baholovchi shkalali indikator va mezonlar hamda o'quvchilarining kartografik bilimlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan, "Elektron kartografik atribut", "Amaliy kartografik bilimdonlik" turkumidagi stimullovchi o'quv topshiriqlarining ijodiy, erkin va majburiy bajarilishini belgilovchi ko'rsatkichlar va ular bo'yicha qo'yilgan ballar tizimlashtirish orqali asoslangan;

geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida akademik litseylar o'quvchilarining kartografik bilimlarini rivojlantirish mexanizmi nazariy, amaliy va mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari, bosqichlari, usullari, vositalari va baholash mezonlarining o'zaro integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

interfaol, muammoli, loyiha, hamkorlik, kompyuter va rivojlantiruvchi talim hamda o'yin texnologiyalariga asoslangan o'quv topshiriqlari to'plamidan iborat metodika ishlab chiqilgan;

"Elektron kartografik atribut" hamda "Amaliy kartografik bilimdonlik" nomli o'quv topshiriqlari va amaliy mashqlar to'plami ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan GeoMat.uz sayti yaratilgan;

akademik litsey o'quvchilarining kartografik bilim va kompetensiyalarini baholovchi indikator va mezonlar ishlab chiqilgan;

akademik litsey o'quvchilarining kartografik bilimlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Izlanish natijalarining ilmiyligi va obyektivligi, avvalambor, ko'rib chiqilayotgan muammoning gnoseologik tamoyillar hamda bilish nazariyasining fundamental metodologiyasiga tayanganligi bilan izohlanadi. Geografik fanlar majmuasida dialektik qonuniyatlarning ustuvorligi hamda tabiiy-ijtimoiy hodisalarni interpretatsiya qilishda tizimli-strukturaviy yondashuvning tatbiq etilganligi tadqiqotning konseptual poydevorini belgilab beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning nazariy-metodik bazasi geografiya va pedagogika sohalaridagi mahalliy hamda xalqaro nufuzli ilmiy maktablar vakillari, yetakchi metodist-olimlar va soha mutaxassislarining fundamental xulosalariga integratsiya qilinganligi bilan mustahkamlanadi. Tadqiqot arxitektonikasidagi maqsadlar iyerarxiyasi va belgilangan

vazifalar o'rtasidagi mantiqiy mutanosiblik, shuningdek, aprobatsiya jarayonida olingan ko'rsatkichlarning matematik-statistik apparat hamda verifikatsiya usullari yordamida qayta ishlanishi natijalarning ishonchlilik darajasini kafolatlaydi. Bundan tashqari, ilgari surilgan innovatsion g'oyalar va amaliy takliflarning xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy forumlarda keng muhokama etilganligi, OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) tomonidan e'tirof etilgan nufuzli xorijiy va milliy davriy nashrlarda e'lon qilinib, ekspertizadan o'tganligi izlanishning ilmiy qimmatini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalarining ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan berilgan tegishli joriy etish dalolatnomalari (sertifikatlari) orqali e'tirof etilganligi ishning ijtimoiy-amaliy ahamiyatini to'laqonli asoslab beradi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati geografiya va matematika fanlari sinteziga asoslangan innovatsion didaktik platformaning ishlab chiqilganligi hamda geografik ta'lim metodologiyasining kontseptual yangilanganligi bilan belgilanadi. Izlanish doirasida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Geografiya ta'limida integrativ, kompetensiyaviy va texnologik yondashuvlarning nazariy-metodik asoslari tizimlashtirildi hamda ularning zamonaviy axborot muhitidagi transformatsiyasi asoslab berildi;

Matematik modellashtirish usullari orqali geografik qonuniyatlarni anglash va tahlil qilishning takomillashtirilgan kognitiv mexanizmi yaratildi;

Ta'lim jarayonini tashkil etishning amaliy-texnologik tizimini rivojlantirishga xizmat qiluvchi fundamental nazariy xulosalar shakllantirildi;

Geografik ma'lumotlarni raqamli qayta ishlashga yo'naltirilgan texnologik algoritmlar ishlab chiqildi hamda fanlararo sintez asosida o'quvchilarning kartografik kompetensiyalarini yuksaltiruvchi didaktik model modellashtirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati geografiya darslarida o'quvchilarning kartografik va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy-metodik instrumentariyning yaratilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning amaliy qimmati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Geografiya ta'limiga matematik usullarni integratsiya qilish orqali o'quvchilarning amaliy-metodik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan texnologik ishlanmalar joriy etildi;

O'quv jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik determinatlar (shart-sharoitlar) va stimullashtiruvchi omillar identifikatsiya qilindi;

Akademik litseylar uchun geografiya fanini o'qitishning zamonaviy talablariga mos keluvchi metodik tavsiyalar, didaktik materiallar va murakkablik darajasi tabaqalangan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

Xalqaro ilg'or tajribalarni milliy ta'lim kontekstiga moslashtirish (adaptatsiya) asosida tizimdagi mavjud metodik bo'shliqlarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berildi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan yangi avlod darsliklarini yaratishda, pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining o'quv dasturlarini boyitishda hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida geografiya fanining o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarishda strategik manba sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** akademik litseylarda geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishining muhim natijalari asosida:

geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan anketa so'rovi, o'quvchilar bilimini tashxislash, dastur, dasturga muvofiq reja hamda turli ta'lim texnologiyalarini qo'llash va o'quv topshiriqlari to'plami asosida ishlab chiqilgan metodika "O'zbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 15-apreldagi 05-09-714-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta'minlanishiga va yangi manbalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

"Elektron kartografik atribut" va "Amaliy kartografik bilimdonlik" texnologik jarayoni asosida ishlab chiqilgan kartografik bilimlarini rivojlantirish modelidan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-402104339- raqamli "O'zbekistonning nozoekologik sharoitini geografik tahlil qilish asosida ixtisoslashtirilgan xaritalar ishlab chiqish (Jizzax va Sirdariyo viloyatlari uchun)" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 14-noyabrdagi 04/11-22697-son ma'lumotnomasi). Natijada, geografiya va matematika fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini istiqbolli rivojlantirish yo'nalishlarini belgilovchi ilmiy–metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan;

kartografik bilim va kompetensiyalarga egalikni baholovchi shkalali indikator, baholovchi mezonlar hamda geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan akademik litseylar o'quvchilarining kartografik bilimlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari "O'zbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 15-apreldagi 05-09-714-son ma'lumotnomasi). Natijada, teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallanishiga va ilmiy dalillarga asoslanishiga xizmat qilgan;

Akademik litseylarda geografiya fanlarini o'qitishda ijodiy va kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish, geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida akademik litsey o'quvchilarining kartografik bilimlarini rivojlantirish mexanizmiga oid ilmiy metodik-tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi faoliyatida geografiya ta'lim yo'nalishining malaka talabiga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 02/01-01-482-son ma'lumotnomasi). Natijada, geografiya ta'lim yo'nalishining malaka talablarini takomillashtirish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 18 nomdagi ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop

etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 158 bet, shundan asosiy mazmuni 128 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning Kirish qismida dissertatsion ish mavzusining dolzarbligi, zaruriyati asoslanib, uning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan; shu bilan birga ishda muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti yoritilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari haqida ma'lumot berilgan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilingani hamda dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish genesologiyasi”** deb nomlanib, unda geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishning pedagogik tavsifi, o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishda geografiya va matematika fanlari integratsiyasini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Barcha davrlarda ta'lim muassasalarida muayyan fan asoslarini o'qitishda sohalar o'rtasidagi o'zaro integratsiyaga tayaniladi. Binobarin, bu boradagi integratsiya u yoki bu sohalarining funksional imkoniyatlariga tayanilgan holda ilmiy bilimlarni yanada samarali, yanada puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday sohalar borki, ular o'rtasida integratsiyani qaror toptirish nafaqat kerak, balki zarurdir. Xususan, geografiya va matematika sohalarining funksional imkoniyatlariga tayangan holda o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilar tomonidan tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlari asoslarini, xususan, kartografik bilimlarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Metodik jihatdan fanlararo integratsiyaga erishish murakkab jarayon sanaladi. Murakkablik quyidagi holatlarda ko'zga tashlanadi: o'quv dasturlari bilan tanishgan holda o'zaro yaqin mavzularni aniqlash; aniqlangan mavzular bo'yicha darslik yoki qo'llanmalarda taqdim qilingan, shuningdek, qo'shimcha adabiyotlar yoki elektron-axborot resurslari orqali taqdim qilinayotgan yangi ma'lumotlar asosida o'quv materialini tahliliy o'rganish; to'plangan ma'lumot (o'quv axborot)larini mos ravishda o'quv materialining zarur o'rinlariga singdirish; o'zaro sintezlashtirilgan bilimlarni o'quvchilarga taqdim etishning samarali yo'llari, shakllari, metodlari, vositalari hamda texnologiyalarini tanlash hamda ular yordamida o'quv materiali mohiyatini yoritish.

Akademik litseylarda geografiya va matematika fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyaga erishish didaktik jihatdan samarali sanaladi. Binobarin, geografiya va matematika fanlarining o'zaro integratsiyasiga erishish o'quvchilar tomonidan har bir fanni alohida o'rganish bilan birga ular o'rtasidagi aloqadorlikni chuqur anglanishiga,

koordinatalarni aniqlash, masshtablarni belgilash, geografik kenglik va uzunliklarni o'lash, proyeksiyalarni olish kabi amaliy malakalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. O'quvchilarda geografiyaga oid iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya, demografiya kabi murakkab jarayonlarni grafik va matematik modellar yordamida tahlil qilish o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Buning natijasida o'quvchilar ma'lumotlarni shunchaki yodlab qolmay, balki ularni amaliyotda, kundalik faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Geografiya va matematika fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyani qaror toptirishda ularning o'ziga xosliklari va o'xshash jihatlaridan xabardor bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi.(1-jadvalga qarang)

### 1-jadval

#### Geografiya va matematika fanlarining o'ziga xosliklari va o'xshash jihatlari

Fan	O'ziga xosliklari	O'xshash jihatlari
Geografiya	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tabiiy muhit (atrof-muhit)ni, unda kechadigan tabiiy hodisa (yog'inlar, tektonik harakatlar, o'simliklar olami, hayvonat dunyosi, iqlim), tabiiy muhitda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tabiiy obyektlar (cho'llar, tog'lar, suv havzalari) va jarayonlar (yil fasllarining almashinuvi, iqlim o'zgarishlari)ni o'rganadi.</li> <li>2. Tabiiy fanlar turkumiga kiradi.</li> <li>3. Xilma-xil va doimiy o'zgaruvchan tabiatga tabiiy qonunlar hamda inson faoliyatining ta'sirini tadqiq qiladi.</li> <li>4. Fan asoslari maxsus shartli belgilar tizimi: topografik belgilar, belgilashlar va qisqartmalarga asoslanadi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ushbu fanlarning rivojlanishi o'zgarimas qonuniyatlarga asoslanadi.</li> <li>2. Barqaror atamalar majmui – terminologiya, fundamental asosga ega.</li> </ol>
Matematika	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Atrof-muhitda kechadigan hodisalarning mohiyatini miqdoriy qonuniyatlar asosida o'rganadi.</li> <li>2. Aniq fanlar turkumiga kiradi.</li> <li>3. Mavjud holat qat'iy mezon – barcha tafsilotlardagi aniqlik asosida baholanadi.</li> <li>4. Fan asoslari maxsus belgilar tizimi – raqamlar, matematik belgilar, kompyuter tizimidagi kodlarga asoslanadi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aniqlik – asosiy mezon.</li> <li>2. O'lchash, hisoblash – muhim talab sanaladi.</li> <li>3. Aniq xulosa chiqarishda qiyoslash, taqqoslash metodlari muhim ahamiyat kasb etadi.</li> <li>4. Son ko'rsatkichlari o'rganilayotgan jarayon, hodisaning holatini tavsiflaydi</li> </ol>

Tadqiqot jarayonida “Geografiya” (“Amaliy geografiya”)<sup>8</sup> darsligining mazmuni va mavzular ko'lamini o'rganish orqali tegishli fanlar integratsiyasiga muvofiq o'rganiladigan quyidagi boblar bo'yicha mavzular aniqlandi: “Jahonning siyosiy xaritasi”; “Amaliy mashg'ulot. Jahonning siyosiy xaritasini o'rganish”; “Yevropaning geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi”; “Amaliy mashg'ulot. Yevropaning siyosiy xaritasini o'rganish”; “Osiyo qita'sining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi”; “Amaliy mashg'ulot. Osiyo siyosiy xaritasini o'rganish”; “Afrikaning geografik o'rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari”; “Amaliy mashg'ulot. Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitini o'rganish”; “Dunyo aholisining soni, o'sish va joylashishi”; “Jahon aholisining Yoshi, jinsiy va irqiy tarkibi”; “Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi”; “Amaliy

<sup>8</sup> “Geografiya” (“Amaliy geografiya”) / O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. Mualliflar: Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 160 b.

mashg'ulot. Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar"; "Markaziy Osiyo mamlakatlari".

Akademik litseylarda geografiya va matematika fanlari o'rtasidagi integratsiyadan nafaqat darslarda, shu bilan birga, darsdan tashqari sharoitlarda ham foydalanish samarali sanaladi.


Darsdan tashqari sharoitda to'garak (yoki klub) faoliyatini yo'lga qo'yish orqali o'quvchilar tomonidan kartografik bilimlarning puxta egallanishiga erishish mumkin. To'garak (yoki klub) faoliyatining o'quv loyihalari va keyslari, kreativ topshiriqlarga asoslanishi esa o'quvchilarda "Geografiya" ("Amaliy geografiya") fani asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Kartografik bilimlar geografik ta'limning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Xaritalar geografik hodisa va jarayonlarning vizual in'ikosi ekanini hisobga olinsa, kartografik bilimlarning ahamiyati shunchalik yaqqol namoyon bo'ladi. O'spirin-o'quvchilarning geografik qobiliyat bilan birga matematik tafakkurga ham ega bo'lishi ular tomonidan kartografik bilimlar puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Geografik va matematik bilimlar integratsiyasiga ko'ra kartografik bilimlarni o'qitish metodik tayyorgarlikka asoslanadi.

Geografik va matematik fanlar integratsiyasini ta'minlash orqali o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon unda muayyan tamoyillarning ustuvorligiga erishish asosida kechadi. Nazariy tahlil va akademik litseylar o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini kuzatish, ularning geografik va matematik bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabatlarini o'rganish asosida quyidagi tamoyillarning ustuvorligiga erishish geografiya ta'limi sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishda muhim ekaniga ishonch hosil qilindi: fanlararo aloqadorlik, tizimlilik va izchillik, amaliy yo'naltirilganlik, integral ta'lim, ko'p tomonlama tahlil, hayotiy misollarga tayanish, ijodkorlik va mustaqillik, loyihalash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, refleksiv baholash.

Mohiyatiga ko'ra akademik litseylarda geografiya ta'limi jarayonida kartografik bilimlarni berish o'qitishning o'ziga xos jarayoni bo'lib, u bir necha bosqichlarda tashkil qilinadi. Geografiya ta'limining mazmuni, o'ziga xosligi, o'quvchilarning tegishli kompetentlik sifatlariga egaliklari hamda o'qitish yo'nalishining oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, akademik litseylarda kartografik bilimlar targ'ibotining quyidagi bosqichlarda kechishiga ishonch hosil qilindi (1-rasmga qarang).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari (maktablar, akademik litseylar)da kartografik bilimlar targ'iboti bilan bog'liq vaziyatlarni o'rganish o'z yechimini kutayotgan qator muammolar (vaqt byujdetining yetarli emasligi; o'quvchilar kartografik malakasi darajasining pastligi; kontur xaritalar bilan ishlash uchun ko'p vaqt talab qilinishi; geografiya fanlariga oid ma'lumotlarning tezkor yangilanishi hamda mavjud o'quv adabiyotlari, geografik xaritalar o'rtasidagi tafovutning mavjudligi; fan o'qituvchilarining yuqori texnologik kompetentlikka ega emasligi kabilar) mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida ularning yechimlarini topishga ham e'tibor qaratildi.



**1-rasm. Akademik litseylarda kartografik bilimlar berishning muhim bosqichlari**

Tadqiqotni olib borish davrida akademik litsey o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan kartografik bilim asoslarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Akademik litseylar uchun mo'ljallangan "Geografiya" fani bo'yicha o'quv dasturining mazmuni, o'spirin-o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularda quyidagi kartografik bilim va kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb topildi: kartografik bilim va manbalar (atlas, globus va geografik xaritalar)ning ijtimoiy va shaxs uchun, shuningdek, kartografik bilimlarni o'zlashtirishda matematik va geografik fanlar integratsiyasining ahamiyatini, ijtimoiy va kundalik faoliyatdagi rolini tushunish; xaritalarning turlari hamda tasnifini, xaritalarning tarkibiy elementlari (masshtab, shartli belgilar, koordinatalar tizimi (to'ri; geografik kenglik va uzunlik, ekvator, bosh meridian, qutblar)ni, shuningdek, xaritalarda ma'lumotlarni tasvirlash usullari (ma'muriy chegaralar fon, iqlim, relefni izochiziqalar aholi punktlarini nuqta, minerallarni areal yordamida tasvirlash usullari)ni bilish; xaritada masofani haqiqiy masofaga yoki, aksincha, real masofani kartografik masofaga aylantira olish; geografik obyektlarning joylashuvini aniqlash; xaritalar bilan ishlash fazoviy fikrlash (Yer shari va geografik hududlarning joylashuvi, shakli, o'lchamlarini taqqoslash, tahlil qilish hamda geografik obyektlar (cho'llar, tog'lar, suv

havzalari, tekisliklar, botiqlar)ning fazoviy joylashuvini, relef xususiyatlarini anglash, ular orasidagi masofa va yoʻnalishni aniqlash) qobiliyatiga ega boʻlish.

Akademik litseylarda oʻquvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishda geografik va matematik fanlar integratsiyasini taʼminlash jarayoni tabiiy ravishda bir qator omillarning faol taʼsir koʻrsatishi orqali kechadi. Tadqiqotni olib borishda tegishli jarayonning muvaffaqiyatli kechishiga muayyan omillar samarali taʼsir

koʻrsatishiga ishonch hosil qilindi va ushbu omillar quyidagi ikki guruhga ajratildi:

1. Obyektiv omillar: oʻquv dasturlarining muvofiqligi; oʻqitish jarayonining taʼlim resurslari va materiallar bilan taʼminlanganlik darajasi; oʻquv xonalarining zamonaviy texnik vosita hamda texnologiyalar bilan jihozlangani; taʼlim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2. Subyektiv omillar: oʻquvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi; ularning kasbiy-pedagogik kompetentlikka egaligi; turli fan oʻqituvchilari oʻrtasida ijodiy kollaboratsiyaning tashkil topgani; darslarda hayotiy misollar, amaliy qoʻllanmalardan foydalanilishi; oʻquvchilarning kartografik bilimlarni oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqish va ehtiyojga egaligi; ularning oʻquv-bilish faolligi; geografiya darslarida oʻquvchilarning oʻquv va ijodiy loyiha ishlariga jalb qilinishi; iqtidorli oʻquvchilarning qoʻllab-quvvatlanishi.

Akademik litseylarda oʻquvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishda geografik va matematik fanlar integratsiyasini taʼminlashda fan oʻqituvchilari oʻziga xos oʻrin tutadi. Binobarin, fanlararo integratsiya ularning kasbiy kompetentligi, mahorati hamda tajribasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Samarali ravishda integrallashgan bilimlarni berishda geografiya fanlarining oʻqituvchilari muayyan kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatleri (kompetensiyalari)ga ega boʻlishlari zarur.

Tadqiqotni amalga oshirish davrida geografiya fani oʻqituvchilarida tayanch matematik bilimlarga egalik; metodik kompetentlikka egalik; turmush bilan bogʻliq masala va muammolarni tahlil qilish va yechish layoqatiga egalik; matematika fani oʻqituvchilari bilan ijodiy hamkorlikni olib borish qobiliyatiga egalik kabi kompetensiyalarining namoyon boʻlishi ular tomonidan matematik hamda geografiya bilimlar integratsiyasining taʼminlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya fani oʻqituvchilarining matematika, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani oʻqituvchilari, akademik litsey maʼmuriyati va mahalliy geografiya va geodeziya tashkilotlarning vakillari, oliy taʼlim muassasalarining pedagoglari, ilmiy-amaliy markazlar va ularning xodimlari (ekspertlar), shuningdek, nodavlat ekologik tashkilotlar kabi subyektlar bilan taʼlimiy hamkorlikka erishishlari akademik litsey oʻquvchilari tomonidan kartografik bilimlarning puxta egallanishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida oʻquvchilar kartografik bilimlarini rivojlantirishning mavjud holatini baholash holati, matematik va geografik fanlar integratsiyasi asosida oʻquvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishga innovatsion yondashish mazmuni hamda oʻquv topshiriqlarining turlari, ularning didaktik imkoniyatlari toʻgʻrisida soʻz yuritilgan ikkinchi bobi **“Geografik va matematik fanlar integratsiyasi asosida oʻquvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan.

Mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, maxsus adabiyotlar mazmuni, ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar bo'yicha amalga oshirilgan nazariy tahlil hamda akademik litseylarda tashkil qilinadigan ta'lim jarayonini kuzatish natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayangan holda akademik litseylarda geografik va matematik fanlar integratsiyasiga muvofiq o'quvchilarning kartografik bilimlarini rivojlantirishning mavjud holati hamda uning shakllanishiga ta'sir etgan omillarni tahliliy o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: kartografiya ilmiy-amaliy soha bo'lib, har bir davlatning mavjudligini ta'minlash va istiqbolini belgilashda muhim strategik ahamiyatga ega; shu sababli barcha davlatlarda bo'lgani kabi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining ilk davridayoq O'zbekistonda ham geodeziya va kartografiya sohalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi; ushbu sohalar rivojini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi; xalqaro maydonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar O'zbekistonda davlat chegaralarini mustahkamlash, chegaraoldi hududlarida strategik ahamiyatga ega geografik obyektlarning har birini sinchikovlik bilan o'rganish, yer va suv resurslarini qat'iy hisobga olishga bo'lgan kuchli ehtiyojni yuzaga keltirmoqda; bu esa kartografiya fanlari doirasida kartografik bilim asoslarining chuqur o'qitilishi, o'quvchilarda ushbu bilimlardan amaliy maqsadlarga foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Ta'limiy tajriba davrida respondent-o'quvchilarni "Barcha omillarni hisobga ol!", "Morfologik quti", "Ikki sahifali kundalik", "Venn diagrammasi", "Loyiha", "Keystadi", "Tushunchalar ta'rifi" kabi interfaol metodlardan foydalanishga asoslangan o'quv topshiriqlarini bajarishga jalb qilishda ularning e'tiborlariga o'quv-bilish faoliyatini qulay tashkil qilinishi uchun ish qog'ozlari taqdim qilindi.

Tajriba-sinov ishida kompyuter ta'limi texnologiyalaridan foydalanish, asosan, elektron infografika konstruktorlari asosida o'quv loyihalarini tayyorlashdan iborat bo'ldi. Respondent-o'quvchilarning bu boradagi o'quv-bilish faoliyati tadqiqotchi tomonidan asoslangan quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1-bosqich: mavzu mohiyatini yorituvchi muammoni hal qilish uchun o'quv topshirig'i shakllantiriladi;

2-bosqich: o'quv topshirig'i o'quvchilarga taqdim qilinadi;

3-bosqich: o'quv topshirig'ini bajarish uchun o'quvchilar tomonidan elektron infografika vositalari orasida kerakli, mos qolip (shablon) tanlanadi;

